

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UN DAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizulloh</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI VAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС ПРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshiboieva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIJ TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafroz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372
12.00.00 - YURIDIK FANLAR	
<i>Hурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNIIY- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEKANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHLTLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

USING THE PHILOSOPHICAL HERITAGE OF YUSUF KHOS HAJIB IN CREATING THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE

Muhamedov Asror Asadovich,

Associate Professor, Alfaraganus University,

Doctor of Philosophy

Professor, Ph.D. Under the editorship of G.K.Masharipova

Abstract. The article scientifically substantiates the problem of using the philosophical heritage of Yusuf Khos Hadjib in creating the foundations of the Third Renaissance. Uzbekistan is entering a new stage of social and spiritual development, called the Third Renaissance. "The history of mankind shows that the processes of spiritual awakening in the life of any nation lead to the awareness of national identity and raise the economic and cultural development of the country to a new level." This necessitates in-depth scientific research into the periods of the First and Second Renaissance, a thorough study of the masterpieces created during this period, and the provision of research results to the general public.

Keywords: Third Renaissance, spiritual heritage, economic, cultural development, spiritual life, secular sciences.

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH

Muhamedov Asror Asadovich

Alfaraganus universiteti dotsenti,

falsafa fanlari doktori

E-mail: asormukhamedov24@gmail.com

Professor, f.f.d. G.K.Masharipova tahriri ostida

Annotatsiya. Maqolada Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidan foydalanish muammosi ilmiy jihatdan asoslab berildi. O'zbekiston Uchinchi Renessans deb atalayotgan ijtimoiy ma'naviy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. "Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uyg'onish jarayonlari milliy o'zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tardi. Bu esa Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarini chuqur ilmiy tadqiq qilish, ana shu davrda yaratilgan durdona asarlarni chuqur o'rganish va tadqiqot natijalarini jamoatchilik ixtiyoriga havola etish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, ma'naviy meros, iqtisodiy, madaniy taraqqiyot, ma'naviy hayot, dunyoviy fanlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N23>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytib o'tganidek: "Ayni paytda xalqlar tarixida o'ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, uning o'zi salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho'qqilarga ko'tariladi" [1, 5-b.]. Renessansga sabab bo'luvchi omillar, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi rivojlanishlarning ushbu hodisaga nechog'lik xizmat qilganligini bilish mamlakatimizda Uchinchi Renessans davrining boshlanishida qo'l

keladi. Renessans davrini keltirib chiqargan omillar orasida buyuk allomalar dahosining shakllanishi masalalari ham ahamiyatga molik bo'lib, shu kontekstda Yusuf Xos Hojib ma'naviy merosini o'rganish ham bugungi kundagi dolzarb muammolardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Renessans davrini o'rganish fanlararo integratsiyani talab qiladi. "Bir vaqtning o'zida iqtisodiyot, madaniyat, ma'naviy hayot va siyosiy jabhadagi o'zgarishlar, shu bilan birgalikda aniq va tabiiy fanlar, falsafa va adabiyot kabi fundamental fan sohalaridagi yangiliklar, ularning mohiyatini ilmiy jihatdan tatbiq etish g'oyatda keng ko'lamli tadqiqotlarni taqozo etadi" [2, 13-14-bb.]. Shu bilan birgalikda falsafaning metodologik funksiyasidan kelib chiqib, yuqoridagilarning barchasini umumlashtirgan holda xulosalar chiqarish mumkin.

Markaziy Osiyodagi ilk Renessansning katalizatori nima edi? Ko'pchilik olimlar bu borada yakdil fikrda bo'lib, islom dinining taraqqiyoti va uning bunyodkorlik mohiyati keng doiradagi taraqqiyotga sabab bo'lganligini ta'kidlaydilar. Ma'lumki, jamiyat hayotining bir maromda kechishi, insonlarni safarbar qilish va ularni buyuk yaratuvchanlik yo'lida birlashtirish uchun mafkura kerak. Islom o'z davrida ana shunday mafkura vazifasini bajardi. Islom dini arkonlari Yevrosiyoning katta mintaqasida universal madaniy muhit yaratdi. Tarixchi olim G.Mirskiy ta'kidlaganidek, "islom sivilizatsiyasi turli tarixiy taqdir, madaniyat, mentalitet va an'analarga ega insonlarni birlashtirgan" [1, 126-144-bb.]. Bu mamlakatlar va jamiyatlar orasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalar kengayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ilm-fan, ishlab chiqarish, iqtisodiy va boshqa sohalar bo'yicha raqobatni keltirib chiqaradi. Bu o'rinda islom diniga e'tiqod qiluvchilar orasidagi qarma-qarshiliklar va urushlar bo'lib o'tganini, lekin bular umumiy birlikka zarar yetkazmaganini ta'kidlash lozim. Chunki taraqqiyot qarama-qarshiliksiz, urushsiz mavjud bo'la olmaydi. Shu bilan birga, islom dini diniy va dunyoviy fanlar hamda din va dunyoviylik o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlab, jamiyatning normal hayot kechirishiga sabab bo'ldi [4, 9-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, dialektik, retrospektiv, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yangi O'zbekistonda islom diniga bunyodkorlik, xalqimizni jipslashtirish hamda ijtimoiy munosabatlarning universal shakllari manbasi sifatida qarash va undan unumli foydalanish zarur. Bu boradagi ishlarga chuqur ilmiy yondashib, diniy sohadagi turli bid'atlar va ekstremistik qarashlarga nisbatan samarali kurash mexanizmlarini yaratish kerak. Ayniqsa, islom dinining ijtimoiy birlikka zarar yetkazadigan, jamiyat a'zolari o'rtasidagi qarama-qarshilikni vujudga keltiradigan kuchga aylanib ketmasligining yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Diniy o'zlikni anglash obyektiv jarayon bo'lib, unga qarshilik ko'rsatish biror bir ijobiy natija bermaydi. Shuning uchun ham O'zbekistonda diniy siyosat sohasidagi konsepsiyani ishlab chiqish va shu orqali islom dinining bunyodkorlik potensialidan unumli foydalanish zarur.

Ilk Renessansning paydo bo'lishida islom dini ta'sirida shakllangan muhit birlamchi o'rinda tursa, ana shu madaniy muhit sharofati bilan tarqalgan yunon-rim ma'naviy merosi ikkinchi o'rinda turadigan omillardan biridir. Milodgacha bo'lgan davrda yaratilgan falsafiy va ilmiy asarlar arab tiliga tarjima qilinganidan keyin, butun islom madaniyatiga mansub davlatlardagi olimlar uchun yunon-rim allomalari tomonidan yaratilgan asarlarni o'qishga imkoniyat yaratildi. Bu o'rindagi xulosa shundan iboratki, har qanday Renessans ma'lum bir

ilmiy maktablarning yutuqlariga tayanishi mumkin. O'zbekiston sharoitida ilk Renessans bilan yunon-rim madaniyati o'rtasidagi aloqalar kabi xamirturush vazifasini o'taydigan madaniy boyliklar mavjudmi? Bizning fikrimizcha, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda sovet davri hamda mustaqillikning birinchi bosqichida qo'lga kiritilgan ilm-fan yutuqlari, an'analaridan foydalanish g'oyatda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli sovet davridagi qatag'on siyosati, totalitarizmga obyektiv baho bergan holda, o'z ajdodlarimiz va boshqa sovet olimlarining ilmiy yutuqlaridan unumli foydalanish, ularga nisbatan vorisiylik tamoyili asosida munosabatda bo'lish zarur.

Uchinchi Renessans poydevorining eng asosiy poydevori ilmdir. Borliqning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, jahon hamjamiyati oldida paydo bo'layotgan muammolarni tezkorlik bilan hal qilish, bunda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir. Yer yuzidagi qarama-qarshilik tarixdagi eng yuqori darajaga yetdi. "Xalqlar oldida ekologik muammolar – havo, suv, yerning ifloslanishi, o'simlik va hayvon turlarining yo'qolib ketishi; ijtimoiy inqiroz – irqiy, diniy va milliy qarama-qarshiliklar, terrorizm, diniy ekstremizm va aqidaparastlik; iqtisodiy larzalar – global savdo zanjirining buzilishi, oziq-ovqat tanqisligi kabi muammolar ko'ndalang turibdi. Jahon aholisining 2022-yilga kelib 8 mlrd.ga yetishi bu inqirozni kuchaytirib yubordi" [5]. Bu ko'rsatkich yer yuzidagi resurslarning bir tekisda taqsimlanmagani hamda buning ortidan kelib chiqadigan ijtimoiy qarama-qarshiliklar negizida insoniyatni halokat sari yetaklamoqda. Mintaqamizdagi qaltis vaziyat hamda geosiyosiy intilishlarni ham yuqoridagi muammolarga qo'shadigan bo'lsak, xalqimiz butun kuch va resurslarini bunyodkorlik yo'lida sarflashi shart ekani namoyon bo'ladi. Mana shunday sharoitda xalqimiz dunyoqarashini o'zgartirish, jamiyat a'zolarini bir g'oya va mafkura asosida birlashtirish uchun ham Yangi O'zbekiston hamda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish zarurati vujudga keldi. Yusuf Xos Hojib ma'naviy merosining asosini tashkil qiladigan bilimga chanqoqlik fazilatlarini esa bu fenomenga poydevor vazifasini o'tay oladi.

Chunki, allomaning fikricha, bilimsiz insonlar o'z muammolarini zo'ravonlik yo'li bilan hal qiladi. Ilm yo'li muloyimlik, murosa va madora yo'lidir. Har qanday zo'ravonlik ortida johil hukmdor va shu toifadagi jamiyat a'zolari turadi. Hozirgi kunda ijtimoiy muammolarni zo'ravonlik yo'li bilan hal qilishga qaratilgan holatlar ham uchrab turibdi. Jumladan, globallashuv va axborotlashuv ta'sirida yurtimizga kirib kelayotgan turli g'oya va qarashlar – "ommaviy madaniyat", g'ayriijtimoiy axloqiy me'yorlar, diniy ekstremizm, millatchilik kabi destruktiv holatlarni targ'ib qilish va shu orqali jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishga intilish hollarini kuzatmoqdamiz. To'g'ri, mana shunday salbiy illatlardan himoyalani kerak. Bundan tashqari, yoshlarning falsafiy dunyoqarashini rivojlantirishda aql va salohiyatning ulkan resurslariga tayanish, ilg'or zamona yutuqlaridan foydalana oladigan kadrlarni yetishtirish juda muhim vazifalardandir. Alloma aytganidek,

"Jumla el sarvari bilimdon kishi,
Qilich bilan bitar bilimsiz ishi" [6, 47-b.].

Yusuf Xos Hojib ijodiy merosidan bugungi kunda foydalanish zarur bo'lgan qismlaridan biri ilmni to'g'ri yo'lga sarflash, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida ishlatish masalasidir. Ma'lumki, ilmni qanchalik ulug'lamaylik, u insoniyat manfaatlari yo'lida ishlatilmas ekan, halokatli oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, yer yuzidagi eng katta insoniy fojiani keltirib chiqargan Yaponiyaning Nagasaki va Xirosima shaharlari osmonida portlagan atom bombalaridir. Albatta, mana shunday qirg'inbarot qurollarni ham olimlar, ilm ahli o'ylab

topgan. Bugungi kunda O'zbekistonda ilm-fanga davlat darajasida e'tibor kuchli. Informatson texnologiyalar, tabiiy fanlar sohasida katta-katta imkoniyatlar mavjud. Ana shu imkoniyatlardan foydalanib, jamiyatimiz a'zolariga zarar yetkazish hollari ham uchrab turibdi. Misol uchun, internet tarmog'idagi veb-saytlarni buzib kirish, bank hisob raqamidagi pullarni o'g'irlash ma'lum bir bilim va ko'nikma talab etadi.

Rossiyalik faylasuf olim V.Gorbovaning ta'biri bilan aytganda: "Falsafiy va antropologik tahlil orqali bu hodisaga kengroq qarash, bunda tarixiy va madaniy omillarni e'tiborga olish hamda jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy norma va standartlar, an'ana va urf-odatlariga chuqur kirib borish zarur" [6, 11-b.]. Bu borada bundan ming yil oldin Yusuf Xos Hojib tomonidan ilgari surilgan halollik konsepsiyasi g'oyatda muhim ahamiyatga egadir. Olim yozadi:

"Ko'zi to'q hech qachon olmagay pora,
Pora olsa hojib, bek yuzi qora.
Pora bilan ortga ketar har bir ish,
Pora bilan barbod bitar har bir ish" [6, 248-b.].

Yusuf Xos Hojib ma'naviy merosidagi korrupsiyaga qarshi kurashga doir qarashlarni yoshlar orasida targ'ib qilish, ular dunyoqarashining tarkibiy qismiga aylantirish g'oyatda muhim vazifa bo'lib turibdi. Alloma qayd etib o'tganidek, poraxo'rlik shaxsga doir jinoyat emas. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, hukmdorning maslahatchisi pora olsa, nafaqat u, balki hukmdorning yuzi ham qora bo'ladi. Buning oqibatida esa hokimiyatning obro'sizlanishi, jamiyat a'zolarining ishonchsizligi va ijtimoiy beqarorlikning kelib chiqishi yuz berishi mumkin. Shu sababli ham Yusuf Xos Hojib davlat xizmatchisini ko'zi to'q bo'lishga, hokimiyatni hurmat qilishga va adolat bilan ish yuritishga chaqiradi.

Alloma korrupsiyaning inson fojiasi ekanligiga e'tibor qaratib, Oyto'ldining o'z o'g'li O'gdulmishga nasihati tarzida quyidagilarni bayon etadi:

"Shamolday yugurar benomu nishon,
O'larman naf ko'rmay bag'rimda armon.
Pora-tortiq bilan hal bo'lmas ishim,
Vo darig', korimga yo'q yarar kishim" [6, 133-b.].

Diniy nuqtai nazardan pora – rishva ancha og'ir gunohlardan biridir. Oyto'ldi tilidan aytilgan afsus-nadomat – haqiqiy dunyoda muammolarni pora-tortiq bilan hal qilib bo'lmasligi, buning asosida turgan masala esa ijtimoiy munosabatlarda tamagirlikning saqlanib qolganidir. Tamagirlikka o'rgangan inson nafaqat gunohga botadi, balki Alloh oldidagi o'z qarzini unutadi, barcha narsani pulga sotib olish ruhiyatiga moslashib qoladi. Shu sababli alloma poraxo'rlikni afsus va nadomat bilan yodga oladi.

Davlat xizmatchisining axloqiy-ma'naviy qiyofasi xususida mushohada yuritib, ikki yomon sifatlardan biri (birinchisi sir saqlay olmaslik) poraxo'rlikdir, deb aytadi. Hukmdor atrofida yurgan amaldorlar o'z mavqeyidan past niyatlarda foydalanmasligi lozimligini uqtiradi. Ma'lumki, hokimiyat harakati uning institutlari yordamida faoliyat ko'rsatadi. Institutlar faoliyatiga esa ma'lum bir shaxslar rahbarlik qiladi. Shu sababli hukmdor yoki xalq tomonidan ishonch bildirilgan rahbarlar xalq va hokimiyat o'rtasidagi to'siq emas, ko'prik bo'lishi kerak. Yusuf Xos Hojib bu konseptual yondashuvni bunday ifodalaydi:

"Pora olmay qilsa barcha ishini,
Bekka yaqin qilsa olis kishini.

Ikki illat bo'lsa kishida, malik,
Buyurma unga ish, uzatma ilik”.

Xalq va hukumat ishonchini yo'qotgan amaldorga ish buyurish, ya'ni ishonch bildirish, unga hurmat-ehtirom ko'rsatish mumkin emas. Bu orqali jamiyat korrupsionerga ijtimoiy sanksiyalarni qo'llaydi, unga nisbatan nafrat va ishonchsizlik tuyg'ularini izhor etadi.

Xalq bilan muloqot mavzusini davom ettirib, alloma yozadi:

“Ulusga, lashkarga bosh bo'lsang o'zing,
Halol-u to'g'ri bo'l ham o'tkir ko'zing.
O'zing hojib ersang, pora olmagin,
Yetim, tul va qashshoq so'zin tinglagin” [6, 402-b.].

Jamiyat a'zolarining barcha qatlamlari ehtiyojlari, manfaatlari va orzu-umidlari turlicha. Shular ichida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar ham bor. Ko'pincha ushbu muammolar qashshoqlik bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Misol uchun, boquvchisi (eri)ni yo'qotgan beva ayol farzandlarini moddiy jihatdan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lmay qoladi. Chunki iqtisodiy ne'matlardan bahramand bo'lishdagi notekislik sababli qashshoqlik uning farzandlariga ham o'tadi. Bu esa ta'lim va tarbiya jarayonidagi murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Oqibatda ijtimoiy qarama-qarshiliklar kengayishi, jamiyat va davlatning asoslariga zarar yetishi mumkin. Qayd etib o'tish kerakki, hamma vaqtlarda ham ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar jamiyatning mutlaq ko'pchiligini tashkil qilmagan. Shunday ekan, bunday toifadagi kishilarga nisbatan alohida munosabat, g'amxo'rlik ko'rsatish orqali avloddan avlodga o'tib keladigan qashshoqlik zanjiriga barham berish mumkin. Davlat amaldori (hojib) esa bu borada hushyor bo'lishi, muammoni o'z vaqtida hal qilishi zarur.

So'nggi vaqtlarda global axborot makoni subyekti sifatida o'z hukumati va xalqiga past nazar bilan qarash avj olgan. Bu esa yoshlarda huquqiy nigilizm, siyosiy jarayonlardan o'zini chetga olish kabi salbiy xususiyatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Yusuf Xos Hojib hayotiy ibratining mohiyati ham shaxs qanchalik bilimdon bo'lmasin, o'zidan bilimi past bo'lgan hukmdorlarga maslahat berishdan, ularni to'g'ri yo'lga boshlashdan oriyat qilmasligi kerak. Ya'ni axborot makonidagi ijtimoiy faollik jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qilishi zarur. Ushbu g'oya va uning zamirida yotgan allomaning fikrlari bugun yoshlarimiz uchun g'oyatda zarur bo'lgan ma'naviy ozuqani berishga qodirdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Eng muhimi, bunday ezgu fikr va intilishlar yon atrofdagi xalqlar va davlatlarga nisbatan asossiz da'volar yoki o'z qobig'iga o'ralib olishga sabab bo'ladigan proteksionizm va izolyatsionizm tamoyillaridan mutlaqo holidir” [1, 19-b]. Bugun jahonda turli-tuman nizolar, xalqaro mojarolar kuzatilmoqda. Bunday sharoitda har bir xalq milliy o'zligini saqlashi, jamiyat a'zolarida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishi, insonlarda o'zlarining kuch, iste'dod va zakovatini mamlakat taraqqiyoti uchun sarflashi g'oyat muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, adib Yusuf Xos Hojibning boy merosidagi kulminatsion nuqta bo'lgan bilim konsepsiyasi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni amalga oshirishda ma'naviy jihatdan poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildiradi: “...yagona maqsadimiz – maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'limi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasiga, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy

ziyolilarimizni esa Yangi Uygʻonish davrining toʻrt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat” [1, 57-b.].

Uchinchidan, Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidan bugungi kundagi oʻtkir muammo – jamiyatdagi mavjud diniy qutblashuvni bartaraf etishda foydalanish mumkin. Ijtimoiy qutblashuv (polyarizatsiya) iqtisodiy, madaniy va boshqa mansublik oqibatida jamiyat aʼzolari oʻrtasida qarama-qarshilikning kelib chiqishidir. Bu haqda toʻxtalib Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: “Umuman, jamiyatdagi muammo va mojarolarning uzoq vaqt mobaynida hal etilmay qolishi, qonunsizlikning avjiga chiqishi, inson huquqlarini mensimaslik va ularning poymol etilishi, fuqarolarning faol ijtimoiy-iqtisodiy hayotdan chetda qolishi, etnik kelib chiqishi yoki milliy-diniy sabablar boʻyicha kamsitilishi kabi illatlar bir boʻlib, gʻoya va qarashlarning salbiy tomonga oʻzgarib ketishi va alamzadalik kayfiyatining ekstremistik harakatlarga aylanishiga sabab boʻlayotgani kuzatilmoqda” [1, 400-b.].

Shuningdek, davlat amaldori, hukmdor xalq oldidagi oʻz burchini bajarmasa, qilinishi kerak boʻlgan yaxshi ishlarni qilmasa xalq tomonidan badduo qilinishiga ishora qilingan” [11, 127-b.]. “Qutadgʻu bilig”da bilimdan toʻgʻri foydalanish masalalari [12, 39-43-bb.], Sharq Renessansining vujudga kelishidagi ijtimoiy omillar [13, 449-453-bb.], “Qutadgʻu bilig” asarida ijtimoiy borliq masalalari [14, 5-14-bb.], Yusuf Xos Hojib falsafasida yetuk va barkamol avlod muammolari [15, 280-289-bb.], Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidan foydalanish istiqbollari [16, 66-69-bb.], muallifning asarlari orqali tanishish mumkin.

Xulosa va takliflar. Birinchidan, ilk Renessans davri uchun xalqlarning yagona madaniy muhitga birlashtirgan omil arab tili boʻlgan boʻlsa, bugungi kunda dunyo miqyosida ingliz tili ilgʻor ilmiy kashfiyotlar va ixtirolar tiliga aylangan. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ushbu omilga alohida eʼtibor qaratish orqali ilm-fanda yuksak natijalarga erishish mumkin.

Ikkinchidan, Yusuf Xos Hojib bilimdon kishi el-yurt sarvaridir, barcha muammolarni hal qilishning yoʻli ilmdir, degan konseptual fikrni ilgari suradi. Bu esa bugungi kundagi global, lokal va milliy darajadagi taraqqiyotimizga toʻsiq boʻlib turgan muammolarni ilmiy yoʻl bilan hal qilish zarurligini yana bir bor uqtiradi.

Uchinchidan, Yangi Oʻzbekiston rivojiga eng katta toʻsiq korrupsiyadir. Yusuf Xos Hojib falsafiy merosida korrupsiyaga qarshi kurash masalalari ham yoritilgan boʻlib, alloma pora olgan bekning yuzi qora boʻlishi haqida ogohlantiradi va tamagirlikning jamiyat taraqqiyotiga toʻsiq ekanini uqtirib oʻtadi.

Toʻrtinchidan, Yangi Oʻzbekistondagi “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan gʻoyaning falsafiy asosi “Qutadgʻu bilig” asarida keltirib oʻtilgan.

“Ulusga, lashkarga bosh boʻlsang oʻzing,
Halol-u toʻgʻri boʻl, ham oʻtkir koʻzing.
Oʻzing hojib ersang, pora olmagin,
Yetim, tul va qashshoq soʻzin tinglagin” [6, 402-b.].

Yuqoridagi fikrlar orqali hukmdor oʻtkir koʻzli – muammolarni oʻz vaqtida koʻra biladigan va jamiyatning barcha aʼzolari bilan muloqotga kirishishga tayyor shaxs boʻlishi kerakligiga eʼtibor qaratiladi. Bu esa davlat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni toʻgʻri shakllantirishga ijobiy taʼsir koʻrsatadigan gʻoyadir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 400 б.
2. Usmonov Z.U. Ilm-fan taraqqiyoti innovatsion iqtisodiyot asosi sifatida // Academic research in educational sciences. 2022. – №9.
3. Мирский Г. “Исламская цивилизация в глобализирующемся мире” // Россия и мусульманский мир, – №. 12, 2004, – С. 126-144.
4. Солтанова Н.Б. Ренессанс Востока – научная база Запада // American Scientific Journal. № 52/2021. – P. 9.
5. Население Земли. https://countrysimeters.info/ru/World#Population_clock
6. Қутадғу билиг: (Билим саодати) / Юсуф Хос Ҳожиб, Абдуҳамид Пардаев таъддили. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
7. Горбова В.В. Философско-антропологические измерения коррупции: Автореф. дисс. филос. наук. Воронож, 2016. – С. 11.
8. Muhamedov A.A. “Qutadg‘u bilig”da bilimdan to‘g‘ri foydalanish masalalari // Sharq falsafasi. Ilmiy-uslubiy jurnal. 7-son 1-jild, 2023. – B. 39-43.
9. Muhamedov A.A. Sharq Renessansining vujudga kelishidagi ijtimoiy omillar // Экономика и социум // ISSN 225-1545 №2(117) 2024. – B. 449-453.
10. Muhamedov A.A. “Qutadg‘u bilig” asarida ijtimoiy borliq masalalari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences // ResearchBib / Index Copernicus // (E)ISSN: 2181-1784 4(7), July, 2024. – B. 5-14.
11. Muhamedov A.A. Yusuf Xos Hojib falsafasida yetuk va barkamol avlod muammolari / International Scientific Journal Of Biruni // ISSN (E) 2181-2993 Vol. 3, Issue 1. May, 2024. – B. 280-289.
12. Muhamedov A.A. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidan foydalanish istiqbollari //“XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журналы. №1, 2024 йил ISSN: 2181-9874 SJIF 2022.-B. 66-69.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).